



Salimova Ganjina Salomovna

Termiz Davlat universiteti Mustaqil izlanuvchi (PhD)

ganjinatalimova38@gmail.com +998972439097

BADIY O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqola didaktik o'yinlardan foydalanish hamda ular orqali bolalarga badiiy o'tishni maksimal darajada yuzaga keltirishga qaratilgan. Ushbu maqolada didaktik o'ylarning ahamiyati hamda badiiy o'qitishda qo'llanilishi yoritilgan.

Abstract: This article focuses on the use of didactic games and the maximum possible artistic transition for children through them. This article highlights the importance of didactic games and their use in art education.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется использованию дидактических игр и максимально возможному художественному переходу детей посредством них. В данной статье подчеркивается значение дидактических игр и их использование в художественном образовании.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yinlar, ta'lif, o'qish, badiiy o'qish, boshlang'ich sinf, mexanizm.

Key words: Didactic games, education, reading, artistic reading, primary class, mechanism.

Ключевые слова: Дидактические игры, обучение, чтение, художественное чтение, начальный класс, механизм.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xosyo'lini tanlashi uzliksiz ta'lif tizimiga va uning mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ysi. Umumiy o'rta ta'lif tizimining yangicha mazmunini shakllantirish uchun "ta'lif berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv uslubiy majmularini, yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" [1] zarur.

O'quv tarbiya jarayoninididaktik ta'minlashning muhim shartlaridan biri o'zin vaziyatlarini vujudga keltirish va kirish hisoblanishini alohida ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Barchamizga ma'lumki, kishilarning yashashi, ehtiyojidan kelib chiqib faoliyatlar ham turlicha bo'ladi.

1. O'zin faoliyati
2. Mehnat faoliyati
3. O'qish faoliyati kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Bir qoniniyat borki, o'zin va hayot ajralmasdir. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, didaktik o'yinlarning xususiyati, ta'limga, o'qish va o'qitishga aloqador masalalarni dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'zin asosida, uning qoidalariga muvofiq olib borishdan iborat. [2]

Dars jarayonida bu kabi didaktik o'yinlardan foydalanish esa nafaqat dars mashg'ulotlarining qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, balki shu bilan birga, bola ongida mavzuning tuqurroq singishiga ham asos bo'ladi desak mubolag'a etmagan bo'lamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy o'qitishni takomillashtirishda esa bu ko'rinishni turli xildagi kechalar, viktorina, she'rxonlik yoinki suhabat tarzida olib boorish ham maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Didaktik o'yinlardan foydalanish ham ma'lum bir metodik talablarga bo'ysinadi.

1. Dars va darsdan tashqari hollarda foydalansa bo'ladi va bunda bolalarning yosh xususiyati mos kelishligi.



2. Dars jarayonlariga 15-20 daqiqa vaqt ajratish kattaroq mavzuni yoinki, takrorlash darslariga butun bir dars soatini ajratishimiz mumkin bo'ladi.

3. Har bir o'yinni o'tkazishdan oldin dars mavzullariga puxta tayyorgarlik olib borilishi shu bilan birga o'yin va mavzular bir biroviga mos kelishi kerakligi. [3]

Ko'rib turganimizdek bilim, ta'lim va tarbiya barchasi yaxlit tizimdir. Bularni barchasini bola ona qornidan boshlab toki oila, mahalla-kuy, ilm maskani va shu jarayonda hayot saboqlari davomida barchasiga ega bo'lib boradi. Bu o'z navbatida yosh avlodning Vatanni sevish, oqil inson bo'lish, ota-onaga hurmat, keksalarni ulug'lash, jamiyat bilan hamnafas yashashga zamin hozirlaydi. Biz maktab dargohiga qadam qo'yay ekanmiz, ta'lim va tarbiyani birdek o'rganmog'imiz, eng samarali yo'lni tanlashimiz, yurtga munosib farzand bo'lish va yetuklik sari ilk qadamlarni tashlamog'imiz darkor. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar hayotida o'qituvchi, ot-onva oilaning o'rni beqiyosdir. Chunki ular bolaga ilk tarbiyani berish bilan birga, ularning har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash, bu orqali sog'lom fikrlaydigan, dunyo hamjamiyatidagi namuna bo'la oladigan yoshlarni tarbiyalashda o'z hissalarini qo'shadilar. Bugungi kunda o'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishlari, yuksak ma'naviyatlari bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Biz badiiy o'qish deganda xalq og'zaki ijodi namunalarini tushunishimiz mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga badiiy asarni o'qitish, uni tahlil qilishni o'rgatish bilan ularning fikrlash doirasi kengayadi, har bir jarayonni to'g'ri mulohaza qilishga o'rgatadi. Shu asosda o'quvchi dunyoqarashi o'zgaradi. Badiiy asarlarini o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikda ish olib boriladi. Chunki o'qituvchi bolaning to'g'ri talqin qilishiga ko'maklashadi. Badiiy asarlar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi. [4]

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, sujet chizig'i, qurilish va tasviriy vositalarni tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi. [5]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, umuman, boshlang'ich sinflarda badiiy o'qitishni shakllantirish va idrok etishdan maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilimlarni berish bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz faqatgina badiiy asarlar tahlili asosida ko'rib chiqdik. O'quvchi yoshlar olayotgan ta'lim-tarbiyada ham kelajakda komil inson bo'lish, har bir jarayon bilan bog'liq ma'naviy ozuqalarni olish, bolada kelajakka intilish, orzuhanas, mehnatga chanqoqlik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezzulik kabi yuksak hislar namoyon bo'lishi bilan ularning ongi va tafakkuri yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T. B-56, 2017
2. Umarova M., Xamroqulov X., Tojiboyeva R. "O'qish" darsligi., 3-sinf. Toshkent 2019. B 92.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi. Toshkent, 2010. B 25.
4. Shojalilov A, G'ulomova X, Sariyeva SH. 4-sinf o'qish kitobi T. 2017,
5. 1. Umumi o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.: SHarq, 1999.